

**MATN ASOSIDA XULOSA CHIQARISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

**Parpiyev Odil Olimovich, Qo'qon universiteti
Filologiya kafedrası dotsent v.b.**

odilparpiyev71@gmail.com, tel.: +998996193971

ORCID: 0000-0002-7398-7155

**Dadaboyeva Madinaxon Aziz qizi, Qo'qon universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi**

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21170599>

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn asosida xulosa chiqarish ko'nikmasini rivojlantirishning metodik, pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Unda matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, sabab-oqibat munosabatlarini anglash, yashirin ma'nolarni aniqlash va umumlashtirilgan xulosaga kelish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi metod hamda usullar tahlil qilingan. Shuningdek, PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari, innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: matn, xulosa chiqarish, o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, metodika, interfaol metodlar, PIRLS, tanqidiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация

В данной статье освещаются методические, педагогические и психологические основы развития у учащихся начальных классов навыка формулирования выводов на основе текста. В ней проанализированы методы и приёмы, способствующие формированию самостоятельного мышления учащихся, пониманию причинно-следственных связей, выявлению скрытых смыслов и развитию способности приходить к обобщённым выводам в процессе работы с текстом. Также обоснованы требования международной программы оценки PIRLS, возможности применения инновационных подходов, интерактивных методов и современных педагогических технологий.

Ключевые слова: текст, формулирование выводов, читательская грамотность, начальное образование, методика, интерактивные методы, PIRLS, критическое мышление, педагогические технологии.

Abstract

This article explores the methodological, pedagogical, and psychological foundations for developing primary school pupils' ability to draw conclusions based on a text. It analyzes methods and techniques that contribute to the development of pupils' independent thinking, understanding of cause-and-effect relationships, identification of implicit meanings, and ability to formulate generalized conclusions in the process of working with a text. The article also substantiates the requirements of the PIRLS international assessment program, as well as the possibilities of applying innovative approaches, interactive methods, and modern pedagogical technologies.

Keywords: text, drawing conclusions, reading literacy, primary education, methodology, interactive methods, PIRLS, critical thinking, pedagogical technologies.

Kirish



Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldida o’quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, axborotni ongli qabul qiladigan, o’qilgan matn mazmunini tahlil eta oladigan va undan asosli xulosa chiqara oladigan shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi turibdi. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim bosqichida o’quvchilarning o’qish savodxonligini rivojlantirish, matnni anglash, asosiy g’oyani aniqlash, voqealar o’rtasidagi mantiqiy bog’lanishni tushunish va o’z munosabatini bildirish ko’nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari aynan shu davrda matnni ravon o’qish, uning umumiy mazmunini tushunish, muhim ma’lumotlarni ajratish, qahramonlar xatti-harakatini baholash va muallif fikrini anglashga o’rganadilar. Shu sababli matn asosida xulosa chiqarish ko’nikmasini rivojlantirish ona tili va o’qish savodxonligi darslarining muhim metodik yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Matn asosida xulosa chiqarish ko’nikmasi o’quvchining faqat matn mazmunini tushunishini emas, balki undagi yashirin ma’nolarni anglashini, sabab-oqibat bog’lanishlarini aniqlashini va o’z munosabatini asoslab bera olishini ham taqozo etadi. Bunday ko’nikma o’quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Boshlang’ich ta’limda matn ustida ishlash metodikasi nafaqat o’qib tushunishni, balki o’quvchining intellektual rivojlanishini ham ta’minlaydi. Shu sababli o’qituvchi dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanishi lozim [4].

Asosiy qism

Xulosa chiqarish – matnda berilgan ma’lumotlarni tahlil qilish, ular orasidagi bog’lanishni aniqlash va umumlashtirilgan fikr hosil qilish jarayonidir. O’quvchi matnni o’qish davomida asosiy g’oyani tushunishi, muallif pozitsiyasini anglab yetishi va matndan kerakli ma’lumotni ajratib olishi zarur. Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: dastlab ular matn mazmunini tushunishga, keyinchalik esa asosiy fikrni aniqlash, qahramonlarning xatti-harakatini baholash va yakuniy xulosa chiqarishga yo’naltiriladi.

O’quvchilarda xulosa chiqarish ko’nikmasining rivojlanishi bir nechta muhim omillar bilan bevosita bog’liq. Bular o’qish tezligi va ravonligi, lug’at boyligi, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish, mantiqiy tafakkur hamda mustaqil fikr bildirish malakasidir. Mazkur omillar birgalikda o’quvchining matnni chuqur anglashiga, undagi ochiq va yashirin axborotni farqlashiga, o’qiganlari yuzasidan asosli xulosa chiqarishiga yordam beradi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari matn asosida xulosa chiqarishni o’rgangan sari ularning o’qishga bo’lgan qiziqishi ortadi, fikrlash doirasi kengayadi, yangi g’oyalarni ilgari surish va bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo’llash qobiliyati rivojlanadi. Bu esa kelajak avlodning mustaqil fikrlaydigan, tanqidiy yondasha oladigan va hayotiy muammolarga oqilona yechim topa oladigan shaxslar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

D. Abdullayeva o’z tadqiqotida boshlang’ich sinf o’quvchilari bilan matn asosida ishlash jarayonida interfaol metodlardan foydalanish samaradorligini o’rgangan. Tadqiqotda 1–3-sinf o’quvchilari bilan qisqa matnlar asosida testlar, yozma ishlar va og’zaki baholash ishlari amalga oshirilgan. Muallif savol-javob, dramatizatsiya va matn asosidagi topshiriqlar o’quvchilarning mustaqil fikrlash hamda tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantirishda samarali usullardan ekanligini ta’kidlaydi [1].

Matn bilan ishlash metodikasini ilmiy asoslashda L.S. Vigotskiy, J. Piaje va J. Bruner kabi pedagog va psixolog olimlarning qarashlari muhim ahamiyatga ega. Vigotskiy bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqotning ahamiyatini asoslagan bo’lsa, Piaje bolalarda

tafakkurning bosqichma-bosqich shakllanishini yoritgan. Bruner esa o’quvchining bilimlarni faol o’zlashtirishi va ularni yangi vaziyatlarda qo’llay olishi ta’lim jarayonining muhim sharti ekanligini ko’rsatgan.

M. Xasanova tadqiqotlarida PIRLS mezonlari asosida o’quvchilarning matnni tushunish darajasini baholash masalalari yoritiladi. Muallifga ko’ra, matnni tushunish o’quvchining o’qilgan axborotni anglash, unga munosabat bildirish va uni o’z faoliyatida qo’llay olish qobiliyatidir. PIRLS tizimida bu jarayon asosiy fikrni aniqlash, tafsilotlarni ajratish, sabab-oqibat bog’liqliklarini tushunish va xulosa chiqarish ko’nikmalari orqali baholanadi [3].

Demak, xulosa chiqarish avvalo matn mazmunini to’g’ri anglash, undagi ijobiy va salbiy hodisalarni baholash, voqealar o’rtasidagi ichki mantiqiy bog’lanishni aniqlash demakdir. Masalan, “Ali soyabonini unutmadi sababli ust-boshi ho’l holda sinfga kirib keldi” gapida yomg’ir yog’ayotgani bevosita aytilmagan. Biroq Alining ust-boshi ho’l bo’lgani va soyabonini unutmadi haqidagi ma’lumotdan tashqarida yomg’ir yog’ayotgan bo’lishi mumkinligi haqida xulosa chiqariladi. Bunday topshiriqlar o’quvchilarning yashirin ma’noni anglash, dalillarga tayanib fikr yuritish va mantiqiy xulosa chiqarish ko’nikmasini rivojlantiradi.

Boshlang’ich ta’lim jarayonida matn asosida xulosa chiqarish ko’nikmasini rivojlantirish uchun turli metod va usullardan foydalanish mumkin. Bunday metodlar o’quvchilarning xatti-harakat oqibatini anglash, hayotiy muammolarga ijobiy yechim topish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, savol-javob, dramatizatsiya, rolli o’yin, klaster, INSERT, “Baliq skeleti”, “Aqliy hujum”, “O’rin almashtirish” kabi metodlar matn mazmunini chuqurroq anglash va xulosa chiqarishga yo’naltirilgan samarali vositalardir.

“O’rin almashtirish” metodi boshlang’ich sinf o’quvchilarida matn bilan ishlash, mantiqiy fikrlash va grammatik bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan samarali interfaol usullardan biridir. Bu metodda o’quvchilarga berilgan gap yoki kichik matndagi so’zlar aralashtirilgan holda taqdim etiladi. O’quvchilar so’zlarni to’g’ri tartibga keltirib, mazmunli va mantiqan to’g’ri gap tuzadilar. Mazkur metod o’quvchilarning til birliklarini to’g’ri joylashtirish, matn mazmunini tushunish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

S. Karimova matn bilan ishlashning pedagogik ahamiyatini o’quvchilarda bir vaqtning o’zida bir necha ko’nikmalarni shakllantirish imkoniyati bilan izohlaydi. Matn ustida ishlash o’quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, diqqatini jamlash, bog’liqlikni anglash, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, matnlar o’quvchilarning so’z boyligini kengaytiradi, turli hayotiy vaziyatlarni tushunish, hissiyotlarni idrok etish va voqealarni mantiqiy ketma-ketlikda tasavvur qilish imkonini beradi [2].

Matn asosida xulosa chiqarish ko’nikmasini shakllantirishda o’qituvchi topshiriqlarni o’quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish darajasi va nutqiy imkoniyatlariga mos holda tanlashi lozim. Dastlab sodda savollar, keyinchalik tahliliy, baholovchi va ijodiy savollar berilishi maqsadga muvofiq. Masalan, “Nima bo’ldi?”, “Qahramon nima uchun shunday qildi?”, “Agar sen qahramon o’rnida bo’lganingda qanday yo’l tutarding?”, “Matndan qanday xulosa chiqarish mumkin?” kabi savollar o’quvchini matn mazmuni ustida chuqurroq fikrlashga undaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, matn asosida xulosa chiqarish ko‘nikmasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur ko‘nikma o‘quvchining matnni shunchaki o‘qib chiqishi bilan cheklanmay, undagi asosiy g‘oya, yashirin ma’no, sabab-oqibat munosabatlari va muallif pozitsiyasini anglashini ta’minlaydi.

Interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va PIRLS mezonlariga asoslangan topshiriqlardan foydalanish bu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi. Matn asosida savollar tuzish, xulosa chiqarish, qahramonlar xatti-harakatini baholash, muqobil yechimlar taklif etish va ijodiy topshiriqlar bajarish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasini oshiradi. Shu jihatdan, boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlashni tizimli tashkil etish o‘quvchilarning intellektual, nutqiy va kommunikativ rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva, D. (2024). Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi. *Modern Science and Research*.
2. Karimova, S. (2022). Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlash metodikasi. *Science Research*.
3. Xasanova, M. (2022). PIRLS mezonlari asosida o‘quvchilarning matnni tushunish darajasini baholash usullari va metodikasi. *InLibrary*.
4. Utanbayeva, D. A. (2024). Boshlang‘ich sinf “O‘qish savodxonligi” darslarida matn ustida ishlashda savol-topshiriqlardan foydalanish samaradorligi. *Modern Science and Research*.
5. Gaynazarova, G. A., Matnazarova, K. O., & Parpiyev, O. O. (2023). Factors and methods of preparing students for professional activities in the conditions of individual training. *Academia Repository*, 4(12), 131-135.
6. Olimovich, P. O. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 24(1), 17-20.
7. Mushtariy, O. (2023). Odiljon P. Boshlang ‘ich ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar. *qo ‘qon universiteti xabarnomasi*, 640-644.
8. G‘ulomjon filolog: NO, P. The Harmony Of Characters’ Speech And Psychological Portrayal In Nabijon Boqi’s “A Tale Of One Love”.
9. G‘ulomjon filolog: Khodjaev, S., & Abdupattaev, G. (2022). The Problem of Era and Hero in the Work of Murad Muhammad Dost. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(12), 77-81.